

YANGI O'ZBEK TILI DARSLIKLARINING QULAYLIK VA IMKONIYATLARI BO'YICHA FIKR-MULOHAZALAR

Utepova Zamira Uzakbaevna

*Qoraqalpog'iston Respublikasi Nukus shahar 8-umumiy o'rta ta'lim maktabi
oily toifali o'zbek tili fani o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zga tilli sinflarda o'zbek tilini o'qitishda yangi o'zbek tili darsliklarining qulaylik va imkoniyatlari bo'yicha fikr-mulohazalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: samara, matn, ijodkorlik, o'zga til, rebus, krossvord, jadva, imkon.

Ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan o'quvchilarga o'zbek tili o'qitishdagi muvaffaqiyat va ishonch o'qituvchining berilgan topshiriqlarni turli ko'rinishda hal qilishda har birining individual qobiliyati, fazilatlari va iste'dodini ohib berishga qanday yordam berishiga bog'liq. Ayniqsa, yangi avlod darsliklari boshlang'ich va yuqori sinflardagi 6-7-10-sinf darsliklarida bu juda muhim. Zero, kreativ va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish zamonaviy ta'limning eng muhim vazifasidir, chunki bu jarayon o'quvchi shaxsi rivojlanishining barcha bosqichlarini qamrab oladi, tashabbuskorlik va mustaqil qaror qabul qilish, o'zini erkin ifoda etish odatini, o'ziga ishonchni uyg'otadi. O'qituvchi natijaga erishish uchun ma'lum tartibda qo'llaniladigan pedagogik harakatlar va vositalar tizimini yaratadi. O'qituvchi o'quvchiga uning qobiliyatlarini o'rganishga yordam berishi, uni o'ziga jalb qilishi va qo'llab-quvvatlashi, unga o'z ijodining natijasini, o'sish istiqbollarini ko'rsatishi, unga o'quv muammosini uni hal qiladigan mavzuga imkon qadar yaqinlashtiradigan vaziyatni modellashtirish imkoniyatini berishi kerak. Bu shaxslararo muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishga imkon beradi, o'rganishning ijodiy boshlanishiga turtki beradi, o'quvchilarning o'ziga bo'lgan ishonchini, o'zini o'zi hurmat qilishini va o'zini o'zi qadrlashini shakllantiradi. Ayrim o'qituvchilarning amaliyotida har bir

sinfda yoki uy vazifasida yo‘l qo‘yilgan xatolarni tahlil qilish va tuzatish bo‘yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Darslarda mavzular bilan ishlashda bir necha asosiy bosqichlar mavjud:

- maslahat, bilim va ko‘nikmalarni tuzatish, natijalar diagnostikasi;
- baholash faoliyati, mantiqiy izchillik;
- tasvirlanayotgan voqeа-hodisa uchun zarur bo‘lgan so‘z, ba’zan zarur lavha kabilarga e’tibor qaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

Yangi avlod darsliklaridagi mavzular integratsion yondashuvni, do‘stlik, kasbga yo‘naltirish, mehnatsevarlik, xarakter-xususiyat, xullas, zamonaviylikni targ‘ib etadi. Darslikning muhim jihat shundaki, bunda testlar, “**Insert**” usuli kabi qator qulayliklar, krossvord, rebuslar joy olgan. Jumladan, 7-sinf o‘zbek tili darsligida “**Libos-inson ziynati**” mavzusida quyidagi insert jadvali asosida mavzuni o‘zlashtirganlik darajasi aniqlanadi.

	Matn mazmuni	+/- /v/?
1	Libos - inson ziynati. Davrlar, zamonlar yangilangani sari liboslar ham o‘zgarib boradi. Bir-biridan rang-barang, uzun-kalta, keng-tor, dabdabali-ko‘rimsiz, qimmat-arzon liboslar.	
2	Inson kiyim tanlashda bu liboslarning yarashgani, o‘ziga munosibligi, yoshiga, qomatiga mosligi, kiyadigan davrasiga to‘g‘ri kelish-kelmasligiga ahamiyat berishi kerak. Madaniyatning talabi - shu.	
3	Kiyinishning inson ruhiyati, fe’l-atvori, kayfiyati, tarbiyasi, did-farosati bilan bog‘liqligi bor. Shuning uchun kiyim tanlashda e’tiborli bo‘lish talab etiladi.	
4	Dastlab teri va jundan mato to‘qish va tikishni kashf qilgan odamzod paxta va ipak tolalarining paydo bo‘lishi bilan liboslarga qulaylik va go‘zallik baxsh etdi.	

Shuningdek, yangi darsliklar zamonaviy innovatsion usullardan foydalanish, intergatsion yondashuvni talab qiladi. Masalan, 7-sinf o‘zbek tili darsligida “**Libos-inson ziynati**” mavzusidagi topshiriqlardan biri ham quyidagicha bajarish yaxshi samara beradi.

O‘ylang va toping. Ushbu topshiriq “**Restavratsiya**” usuli orqali bajariladi. Bunda mavzu tarix fani bilan bog‘langan holda tashkil etiladi. Bunda so‘zlar aralash tartibda yozilgan siz to‘g‘ri joylashtirishingiz kerak bo‘ladi.

Yozing. Namuna: Zamonlar yangilangani sari liboslar ham o‘zgarib borgan.

Zamonlar, o‘zgarib, liboslar ham, yangilangani sari,borgan.

Inson, kiyinishning, ta’siri, ruhiyatiga, bor.

Kiyim tanlashda, ahamiyat berish zarur, mavsumga mosligiga, o‘zimizga yarashganiga. Sanoatning rivojlanishi, baxsh etdi, liboslarga, qulaylik va go‘zallik.

Shuningdek, 10-sinf darsligida ham “Bu qiziq” mavzusida aralash jadval berilgan bo‘lib, ushbu topshiriq o‘quvchilardan izlanishni talab etadi.

2-topshiriqda berilgan jadvaldan aralash so‘zlarni to‘g‘riga, chapga, o‘ngga, diagonal holatda topib yozishlarini va bu musobaqa tarzida o‘tishini ta’kidlang, bunda eng ko‘p so‘z topgan o‘quvchilar qo‘srimcha rag‘batlantirilsin.

P	t	a	o	c	s	ø	s	ø
k	a	b	u	a	i	z	i	s
l	b	r	m	o	d	u	f	u
l	o	a	h	a	z	q	a	r
n	b	t	m	e	v	a	t	a
l	a	s	a	b	z	v	o	t
k	t	i	b	b	i	i	m	l
o	d	o	r	i	f	y	b	o
l	l	n	ø	v	q	t	k	p

Topilishi lozim bo‘lgan so‘zlar:parhez, taom, tabobat, tibbiy, savzavot, sifat, ozuqaviy, meva, Abu Ali, dori, hazm, ovqat..

Xullas, yangi darsliklar orqali kreativ va ijodiy fikrlash darajasi, dunyoqarshi, adabiy til me’yorlarini nutqiy sharoitlarda qo‘llash imkoniyatlarini belgilovchi vositadir. Shuning uchun o‘zbek tili mashg‘ulotlarida bu asosiy va muhim ish turiga alohida e’tibor berish, uning yoqorida tilga olingan barcha tur va ko‘rinishlaridan unumli foydalanish dars samaradorligini ta’minlovchi muhim omildir.

Foydalilanigan adabiyotlar:

- 1.Qosimova K. va boshqalar O‘zbek tili o‘qitish metodikasi. -T., 2009-yil
2. 7-sinf o‘zbek tili darsligi. T; 2022-yil.
- 3.10-sinf o‘zbek tili darsligi. T; 2022-yil.